

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish

Z.D.Hasanova,

Buxoro OO va YESTI o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida barkamol avlodni kamol toptirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» kabi davlat ahamiyatiga molik hujjatlarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish, barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishning qonuniy asoslari belgilab berildi.

2010 yil – «Barkamol avlod yili» deb atalishi yoshlar tarbiyasini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish zaruriyatini yanada oshirdi. Chunki, barkamol avlod o'zida ma'naviy-axloqiy sifatlari, majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatli, axloqiy-estetik madaniyatga ega bo'lgan, mustaqil, erkin shaxsdir.

Fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan islohotlar inson salohiyatini yanada oshirishga, bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-intelektual jihatdan yuksaltirishga, imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga, axloqiy-estetik madaniyatini kamol toptirishga yangi shart-sharoitlarni vujudga keltirdi.

Bu shart-sharoitlar o'z navbatida insonni o'zini har tomonlama kamol toptirish, uni yetuk inson bo'lib shakllanishi va rivojlanishini ta'minlovchi omillarni yaratishga imkon yaratdi.

Har tomonlama rivojlangan shaxs mazmunida bo'lajak mutaxassisning axloqiy-estetik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi axloqiy-estetik madaniyati shakllangan mutaxassis jamiyat, xalq manfaatini ko'zlaydigan, ular oldidagi burchini, ma'suliyatini teran anglatadigan, Vatanga, jamiyatga, xalqqa, uning qadriyatlariga, o'z faoliyatiga, tabiatga, kelajakka insoniy xislatlar nuqtai-nazari bilan yondashadigan shaxs bo'ladi.

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassis-yoshlarning axloqiy-estetik madaniyati oliy o'quv yurtlarining butun o'quv-tarbiya tizimi jarayonida shakllanib boradi. Bu jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar yetakchi o'rinni egallaydi. Oliy ta'limning o'quv rejasidan o'rin olgan "O'zbekiston tarixi", "Huquqshunoslik", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Falsafa", "Ma'naviyat asoslari", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Sotsiologiya", "Pedagogika", "Psixologiya", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" va boshqa fanlar talaba-yoshlarni jamiyat, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayot, mamlakat tarixi, iqtisodi, moddiy borliq va ijtimoiy turmushning ilmiy-falsafiy, mafkuraviy jihatlarini bilan tanishtiradi va:

- yoshlarning tabiat, jamiyat, faoliyatga bo'lgan yangicha munosabatini;
- ongli intizom va aqliy mehnat madaniyatini;
- axloqiy-estetik bilim, his-tuyg'ularini;
- salbiy illatlar va yot g'oyalarga qarshi murosasizlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Darhaqiqat "O'zbekiston tarixi" fanining mazmunidan o'rin olgan mavzulardagi O'zbekiston tarixi insoniyat tarixining ajralmas qismi ekanligi, uning insoniyat tsivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biri bo'lganligi, ajdodlarimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi jahon xalqlari ma'naviyati, madaniyati, ma'rifati taraqqiyotida ulkan ekanligi, Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakati, O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun muhim turtki bo'lganligi to'g'risidagi masalalar yoshlarning har tomonlama rivojlanib kamol topishi, faol hayot turmush tarzini egallashi va ommaviy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirishga tayyor bo'lgan, axloqiy-estetik madaniyati yuksak mutaxassisni tarbiyalashda puxta manba hisoblanadi.

Shuni e'tirof etish joizki, insoniyat yuksalishi, jamiyat rivoji va mamlakat taraqqiyotini madaniyatsiz va ma'naviyatsiz tasavvur qilish qiyin. "Madaniyatshunoslik" kursining dasturidan o'rin olgan "Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati", "Sharq Uyg'onish davri madaniyati", "Temur

va temuriylar davri madaniyati”, “Milliy istiqlol va O‘zbekistonda madaniy taraqqiyot”, “Ma’naviyat asoslari” fani mazmunidagi “Ma’naviyat, iqtisodiyot va ularning o‘zaro bog‘liqligi”, “Ma’naviyatning siyosat, huquq va hokimiyatdagi o‘rni”, “Ma’naviy barkamol, komil inson tushunchalari. Ularning sharqona ta’rifi”, “Iymon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e’tiqod, poklik va vafodorlik – shaxs ma’naviy fazilatlari”, “Huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat va fuqarolik burchiga sadoqat shaxs barkamolligi mezonlari” kabi mavzularni o‘rganishda qadimgi o‘zbek xalqlarining axloqiy-estetik, huquqiy madaniyatining shakllanishi to‘g‘risida ma’lumot berish va ularning hozirgi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyot uchun ahamiyatini har bir talaba-yosh ongiga yetkazish ularda axloqiy-estetik madaniyatning shakllanishini tezlashtiradi. Shuningdek qayd etilgan mavzular mazmunidagi g‘oyalar mustaqil fikrlovchi, o‘z-o‘zini, o‘zligini, tilini, madaniyatini, ma’naviy merosini chuqur anglagan mutaxassisni tarbiyalash va bu fazilatlarni uning axloqiy-estetik madaniyatining mezoniga aylantirish uchun muhim manba ekanligini har bir oliy ta’lim o‘qituvchisi unutmasligi lozim.

Bu yo‘nalishda oliy ta’lim o‘quv rejasining birinchi blokidan o‘rin olgan “Pedagogika” fani ham ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Kursning mazmunidan o‘rin olgan “Barkamol avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari”, “Yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi”, “Barkamol avlodning g‘oyaviy-siyosiy (mafkuraviy), jismoniy, kasb-kor va mehnat”, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, nafosat, fuqarolik tarbiyasi kabi mavzular ham axloqiy-estetik madaniyatning muhim mezonlari – odamiylik, adolatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, burchga sadoqat, mehnat ahliga muhabbat kabi tuyg‘ularni talabalarda singdirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kurslarning har bir mavzusi o‘rganilgandan so‘ng mustaqil ish sifatida “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Inson go‘zalligi ma’naviyatda”, “Mustaqillikni mustahkamlash uchun nima qila oldim?”, “Madaniyatlilik insoniylikning bosh mezon”, “Diyonat, iymon-e’tiqod mening tasavvurimda”, “Sen insonni

ulug'lasang seni Olloh ulug'laydi" kabi mavzularda referatlar yozish va tahlil qilish talabalar axloqiy-estetik madaniyatini shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu yo'nalishda tajriba maydonlarida olib borgan tadqiqotlarimizning natijasi shundan dalolat bermoqdaki, talabalar axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishni faqat darslarda emas, balki darsdan tashqari mashg'ulotlar, tadbirlarda, davom ettirish, "Men vatanim va xalqim saodati uchun nima qila olaman?", "Fuqarolik jamiyatining shaxsi mening tasavvurimda", "Xalqqa, Vatanga, ota-onamga sadoqatimni qanday ko'rsata olaman?" kabi fikrlar talabalarning kundalik hayotidan chuqur o'rin olsin, burchiga, ma'suliyatiga aylansin, ularni qiziqtirsin, Amaliy harakatga yo'naltirsin. Shunda fuqarolik jamiyatining axloqiy-estetik fazilatiga ega bo'lgan mutaxassisni tarbiyalagan bo'lamiz.